



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari 98 Umurov Sharif Rajabovich	98
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash 102 Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	102
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта 106 Панжиева Назокат Нормаматовна	106
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации 111 Тураева Дилфуза Даминовна	111



ONA TILIDAN O'QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI ANIQLASH MEZONLARI

Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Pragmatik kompetensiyaning mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ faoliyatini takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, interfaol metodlar, badiiy matnlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi asoslangan. Tadqiqot natijalari ona tili ta'limi sifatini oshirish hamda o'quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, pragmatik kompetensiya, ona tili darslari, kompetensiyaviy yondashuv, grammatik tushuncha, lingvistik bilim.

Abstract: This article examines the issues of developing students' pragmatic competence in the process of mother tongue education. The essence and content of pragmatic competence, the pedagogical opportunities for its development, and the ways of improving students' speech and communicative activities based on the competency-based approach are analyzed. The effectiveness of using interactive methods, literary texts, and modern educational technologies is also substantiated. The research findings contribute to improving the quality of mother tongue instruction and enhancing students' communication culture.

Key words: competence, pragmatic competence, native language lessons, competency-based approach, grammatical concept, linguistic knowledge.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития прагматической компетенции учащихся в процессе обучения родному языку. Проанализированы сущность и содержание прагматической компетенции, педагогические возможности её формирования, а также пути совершенствования речевой и коммуникативной деятельности учащихся на основе компетентностного подхода. Кроме того, обоснована эффективность использования интерактивных методов, художественных текстов и современных образовательных технологий. Результаты исследования способствуют повышению качества преподавания родного языка и развитию культуры общения учащихся.

Ключевые слова: компетенция, прагматическая компетенция, уроки родного языка, компетентностный подход, грамматическое понятие, лингвистические знания.

KIRISH

Dunyo mamlakatlarida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishdagi ilg'or tendensiyalardan biri "Men" va "O'zga inson" konsepsiyasi doirasida faoliyat yuritish hisoblanadi. Ushbu tendensiya shaxsning o'zligini anglashi va saqlashi hamda ijtimoiy muhit bilan muloqotga kirishuvini faollashtirib, "shaxs va jamiyat" munosabatlarini tartibga solishga yordam beradi. Shaxsning muloqot madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'limning pragmatik, formalistik va paradigmal konsepsiyalarining asosini ham shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan modellar tashkil etadi. Shunga ko'ra, pragmatik kompetentlik masalasi psixologiya, pedagogika va lingvistik ta'limga oid tadqiqotlarning asosiy muammolaridan biri sifatida o'rganilmoqda.

Mamlakatimizda o'quvchilar pragmatik kompetentligini oshirish, ta'lim sifatini yuksaltirish, jamiyat a'zolarining faolligini kuchaytirish hamda ta'limga kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyasini tatbiq etish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktab ta'limini takomillashtirish, ta'lim dasturlarini ilg'or xorijiy

tajribalar asosida yangilash va darsliklarni modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda. “Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq. Shu bois, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur”, degan fikr bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi til ta'limi oldiga o'quvchilarda nutqiy, lingvistik, kreativ va pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo'yadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ona tili ta'limini yangi bosqichga - tilni tizimli o'rganish bosqichiga ko'tarish, imloviy-uslubiy savodxonlikni oshirish, o'quvchilarda nutqiy, lingvistik va pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish hamda shu asosda og'zaki va yozma shakldagi kompetentlikni ta'minlash dolzarb hisoblanadi.

Tilning tabiati va imkoniyatlari to'laqonli ravishda badiiy matn orqali namoyon bo'ladi. Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish o'zbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Nutqiy, lingvistik va pragmatik kompetensiyalarni insonparvarlik yondashuvi asosida rivojlantirishda “Chin insonni adashmay toping”, “Odamiylik so'zi bizniki”, “Do'stlik bekati”, “Fikrimizni o'rtoqlashamiz”, “Fikrlaymiz, o'ylaymiz”, “Go'zal murojaat”, “Hamkorlik”, “Ma'nosini bilasizmi?”, “Mantiqiy fikrlang”, “So'zdan marjon tizing”, “So'zlar guldastasini tuzing”, “Chin insonni ta'riflang” kabi interfaol usullar samarali hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qituvchining o'zi o'qitayotgan fan asoslarini mukammal bilishi, bilganlarini o'quvchilarga yetkaza olish darajasi bilan bir qatorda, uning o'zini tutishi va nutqi ham alohida ahamiyatga ega. M.V. Klarin bu haqda shunday deydi: “O'qituvchi tomonidan qo'llanadigan pauzaning davomiyligi singari “mayda narsa” o'quv dialogining, sinfdagi o'zaro hamkorlikning xarakteriga sezilarli ta'sir o'tkazadi”.

Psixolog-metodist Y.V. Korotayeva ushbu masala yuzasidan quyidagicha fikr bildiradi: “Agar “javobni kutuvchi pauza” o'qituvchi tomonidan uch sekunddan besh sekundgacha cho'zilsa, mulohazalar soni ortadi, javoblarning davomiyligi ko'payadi, ta'lim oluvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchi ortadi, ularning mulohazalarida dalillar kuchayadi, muhokamaga o'qish darajasi unchalik yuqori bo'lmaganlar ham qo'shila boshlaydi, ular orasidagi o'zaro hamkorlik kuchayadi va boshqalar”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida pragmatik kompetensiyani shakllantirishga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi. Mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'limda ona tili darslarida qo'llanilayotgan interfaol metodlar hamda grafik organayzerlarning pragmatik kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Insoniyat bilim olish va bilim berishning shunday bosqichiga yetdiki, endilikda necha ming yillardan buyon foydalanib kelinayotgan o'qitish usullari yetarli bo'lmay qoldi. Bugun o'qitishning turli-tuman innovatsion ko'rinishlari yuzaga kelmoqda. Davr bilim berish, bolalarda muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirishning o'zgacharoq yo'llarini topishni talab etmoqda. Ta'lim tizimi va uni yo'lga qo'yish borasidagi shu xil yangilanishlar keyingi vaqtlarda dunyo miqyosida keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishini hamda ta'limni samarali yondashuvlar zaminida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Bugun o'qituvchidan vaziyatga qarab fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, yuzaga kelgan muammolarni anglash va ularni yechish ko'nikmalariga, vaziyatni tezda baholay olish malakalariga ega bo'lish talab etiladi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida ta'lim tizimiga qo'yilgan talablarning o'zgarib borishi ta'lim jarayonini tashkil etishga bo'lgan yondashuvlarning ham takomillashib borishini taqozo etadi.

Umumiy o'rta ta'limda ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin:

1. Tovush o'zgarishi hodisalarini bilishi va orfoepik hamda orfografik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni amaliyotda qo'llay olishi.
2. Turli uslubda yaratilgan matnlardagi, xususan, matndagi so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini kontekstual pragmatika nuqtayi nazaridan idrok etishi hamda qo'llay olishi.
3. Matndagi so'z va qo'shimchalarning kategorial mansubligini bilishi, ularning kontekstual pragmatikasini his eta olishi.
4. Sintaktik birliklarning uslubiy vazifasi, shuningdek, pragmatik o'ziga xosligini tahlil qila bilishi hamda yozma (ijodiy) ishlarda qo'llay olishi.



5. Nazariy bilim va nutqiy, lingvistik hamda pragmatik kompetentlik sifatlarini namoyon qila olishi.
6. Berilgan keyslarni yechish jarayonida ijodiy qobiliyatini namoyon qila olishi.
7. Ta'lim jarayonidagi va kelajak faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan kontekstual muammolarni aniqlay olishi.
8. Berilgan loyihalarga korporativ moslashish qobiliyatini namoyon qila olishi.
9. Muomala odobi va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'lishi.
10. Dars jarayonidagi ijodkorligi, yangi axborotlar bilan doimiy ravishda tanishib borishi hamda faoliyatining samaradorligi.

Ona tili ta'limi jarayonida grammatik tushunchalarni hosil qilish bilan kifoyalanish ko'p o'rinlarda salbiy natijalarni keltirib chiqarmoqda. Amaldagi reyting tizimi talablariga ko'ra o'quvchilar bilimni baholashning qulay usuli sifatida test sinovlarining ko'p qo'llanilishi tufayli yozma ishlarga e'tibor susaygan. O'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish uchun matn ustida ishlash, bayon va insho yozishga o'rgatish, ijodiy topshiriqlar berish, ilmiy uslubda berilgan matnlarni badiiy uslubga aylantirib yozish kabi topshiriqlarni mustaqil bajarish jarayonlarini takomillashtirish zarur.


Ona tili ta'limida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning tarbiyaviy jihatlariga ham e'tibor qaratish, ta'limda ijtimoiy-sotsial pedagogikani rivojlantirish lozim. Dunyo ilmida pragmatik o'qitishda jamiyatdagi insonning o'rnini o'rganish va buning markaziga insonni qo'yishga katta e'tibor qaratilayotgan ekan, ona tilini o'qitishda mazkur yo'nalishdagi tajribalar va yangi yutuqlarni muttasil o'zlashtirib borish zarur.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilingan darslarda o'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida faoliyat olib borar ekan, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligidagi ta'lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasini berish imkoniyatidan unumli foydalanish zarur. Bunday darslar markazida insoniylik g'oyalari singdirilgan o'quv topshiriqlari va savollar turishiga e'tibor qaratish, ular vositasidagi didaktik tahlil va umumlashtirish (analiz va sintez) o'quvchilarni mustaqil izlanishga, fikrlashga va qaror qabul qilishga yo'naltiradi.



Ona tili ta'limi jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanishda texnik vositalar ham muhim o'rin egallaydi. Texnika va ilm-fanning rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta'lim sohasida ham murakkab qurilmalardan foydalanish imkoniyatini berdi. O'tgan asr oxirlaridagi tajribalarda magnitafon, radiopriyomnik va televizorlar ta'lim vositasi sanalgan bo'lsa, bugun ular o'rnini videoprojektor, epidiaskop, kompyuter, proyektor va elektron doska kabi uskunalarni egallamoqda. Ko'rgazmali qurollar muhim didaktik vosita bo'lganligi sababli ularga alohida ahamiyat berilishi kerak.

Quyida ko'rgazmalilikka asoslangan "Grafik organayzer" usuli tahlil qilingan.

"Grafik organayzer" usuli. Grafik organayzerlar ko'rish imkoniyatini hosil qilgani uchun so'zlarni, ularning mohiyatini va ishlatilish o'rinlarini eslab qolishga yordam beradi. Masalan, "Leksikologiya" mavzusida qavs ichidagi so'zlardan mosini tanlash va maqollarni to'g'rilab yozish vazifasi qo'yilgan. Misol: (Qo'li, mushti, bilagi) zo'r birni yiqar, bilimi zo'r – mingni. Ushbu mashqda o'quvchi qavs ichidagi so'zlardan birini tanlashi kerak bo'ladi. "Qo'l" so'zi ishtirok etgan boshqa misollarni aytish, ta'riflash va gapda qo'llanilishini izohlash so'raladi.

Qo'l	
Ta'rif. Odamning barmoq uchlari bilan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi.	Gapda qo'llanilishi: baquvvat qo'llar, qo'lni oldinga cho'zmoq, ikki qo'lni yuqori ko'tarmoq. Bosh qashigani ham qo'li tegmaydi.
Suratda aks etishi:	

Ilm - (miya, bosh, aql) chirog'i. Topshiriqni bajarishda "Toifalash" grafik shaklidan foydalaniladi. Chunki mavhum otlarni suratda aks ettirishning iloji yo'q.

Miya	Bosh	Aql
Odam va ba'zi hayvonlar nerv sistemasining bo'limi; odamda tafakkur ma'nosini ifodalaydi.	Tananing bo'yindan yuqori qismi, kalla. Anatomiya fanida bosh so'zi miya so'zi bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin.	Fahm-farosat, idrok, es, hush so'zlariga sinonim bo'lgan so'z.
Lekin yuqorida keltirilgan maqolga uslubiy jihatdan umuman mos kelmaydi.	Yuqorida keltirilgan maqolga uslubiy jihatdan mos kelmaydi.	Uslubiy jihatdan ham o'rinli. Ilm – aql chirog'i.
		Ushbu so'zni suratda aks ettirib bo'lmaydi.

Mashg'ulotda ko'rsatilgan bunday grafik organayzerlar mashg'ulot jarayonida o'quvchilar e'tiborini tortadi. Suratda aks etgan tasvirlarni so'z bilan to'g'ri ifodalay olish, so'zlarga savollar berish, turkumlarga ajratish hamda ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalari rivojlanib boradi.

O'quvchilar bilimni baholashda, ularni rag'batlantirish maqsadida samimiy tilaklar savatchasidan foydalanish ham samara beradi.

Kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi til ta'limi oldiga o'quvchilarda pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish maqsadini qo'yadi. Pragmatik kompetensiya muloqot jarayoni ishtirokchilari bo'lmish kommunikant va kommunikantning millati, yoshi, ijtimoiy roli (mavqeyi), jinsi kabi omillarni hisobga olgan holda muloqot madaniyatiga rioya qilishni anglatadi.

Kompetensiyaviylikka asoslangan til ta'limida pragmatik kompetensiyaning o'rni va ahamiyatini asoslash, insonparvarlik g'oyalari singdirilgan badiiy matnlarning grammatik tahlili jarayonida uning pragmatik kompetensiyani rivojlantirish omili ekanligini anglash hamda insonparvarlik mazmunidagi matnlarning leksik, sintaktik va uslubiy tahlili orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani takomillashtirish texnologiyasini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi // https://uza.uz/uz/posts/maktab-talimidagi-islohotlarning-yangi-bosqichi_720360
2. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. - Toshkent, 2005. - 26 b.
3. Азнаурова, Э.С. Прагматика художественного слова Текст. Э.С.Азнаурова. - Тошкент: "Фан", 1988. - С.121.
4. Кларин М.В. Дидактические исследования инновационных практик корпоративного образования. Дидактика и методика обучения. Отечественная и зарубежная педагогика. 2022. Т. 1, № 3. С. 50–61.
5. Ko'chiboyev A. Matn pragmatikasi. -Samarqand, 2015. – 123 b.
6. Leech G. Principles of pragmatics. - London, 1983. – P. 250.
7. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O'zbek tili va adabiyoti, 2001, 4-son, - B. 54-58.
8. Theory and practice of decision-making organizations to break out of the crisis / A. N. Asaul, I. P. Knyaz, Y. V. Korotayeva. - SPb: ANO "IPEV", 2007. -224 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.